

## **Kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda dual ta'limning o'rni**

*NamDPI dotsenti, p.f.n. Marg'ubaxon Eshnazarova Yunusaliyevna  
QDPI Informatika kafedrası dotsenti PhD Zulayxo Marasulova  
Matematika-informatika yo'nalishi MAT-AU-23 talabasi Bulturaliyev Asiljon*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada dual ta'limning rivojlaniishi, dual ta'limning nazariy va pedagogik asoslari tahlil qilib berilgan. Dual ta'lim — bu akademik va amaliy tayyorgarlikni o'zaro uyg'unlashtirgan o'qitish modeli hisoblanadi. Maqolada nazariya va amaliyotni integratsiyalash orqali zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda dual ta'limning ahamiyati ko'rsatilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** *dual ta'lim, dual ta'limning avzalliklari, o'qitish modeli*

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается развитие дуального образования, а также его теоретические и педагогические основы. Дуальное образование представляет собой модель обучения, которая гармонично сочетает академическую и практическую подготовку. В статье показана важность дуального образования для подготовки специалистов, отвечающих требованиям современного рынка труда, посредством интеграции теории и практики.

**Ключевые слова:** *дуальное образование, преимущества дуального образования, модель обучения*

### **Annotation**

This article examines the development of dual education, as well as its theoretical and pedagogical foundations. Dual education is a learning model that harmoniously combines academic and practical training. The article shows the importance of dual education for training specialists who meet the requirements of the modern labor market through the integration of theory and practice.

**Key words:** *dual education, advantages of dual education, learning model*

### **Kirish**

Xususan, iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, yoshlarning kasb va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini inobatga olib, o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklida o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosida tashkil etilayotgan ish o'rinlarida o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojning yanada oshishi natijasida professional ta'lim muassasalarida tashkilotlarning buyurtmalari asosida yil davomida dual ta'lim shaklida o'qitishni yo'lga qo'yish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son Farmonida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish maqsadida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimini joriy etish belgilab berildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2021 yildagi 163-sonli Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqidagi qarori, 07.12.2023 yildagi 647-sonli Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-200-son [qarorlarida](#) quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- dual ta'limni takomillashtirish va metodik ta'minotini mustahkamlash yuzasidan ilg'or xalqaro tajribalarni tizimli o'rganish ishlarini tashkil etish;
- mehnat bozori uchun raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish hamda o'quvchilarni dual ta'lim shaklida qabul qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish;
- tashkilotlardan biriktirilgan ustozlarning pedagogik mahoratini ixtiyoriy ravishda oshirish uchun har yili dual ta'lim shakli bo'yicha bepul qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- dual ta'lim shakli joriy etilgan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha tegishli ta'lim dasturlarini takomillashtirsin hamda Germaniya tajribasi asosida metodik materiallarni ishlab chiqish.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Qarorlarda belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib ushbu maqolada dual ta'limni kelib chiqishi, rivojlanishi, huquqiy asoslari, pedagogik asoslari, afzalligi va AT sohasidagi xususiyatlari hamda Germaniya tajribasini o'rganishni oldimizga maqsad qilib oldik.

XVIII asrning o'rtalarida, dual ta'lim o'ziga xos shaklda Fransiya va Germaniyada tashkil etila boshlandi. Bu davrda, o'qitishni amaliy ish bilan birlashtirish bilan birga va talabalarni amaliy ko'nikmalari ham rivojlantirildi. Bundan tashqari, dual ta'lim kasb-hunarli kadrlarni tayyorlash katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Dual ta'lim ilk bor 1911 yilda Avstraliyada paydo bo'lib, "Cooperative Engineering Course" nomi bilan mashhur bo'lgan kursni o'z ichiga olgan. Bu dars amaliy ish bilan birlashtirilgan o'qitishning eng qadimgi namunalaridan biri sifatida hisoblanadi.

1950-yillarda ish joyida amaliyot bilan bir qatorda talabalarni kasb-hunar bo'yicha malakalarini rivojlantirish uchun kasb-hunar kollejlari tomonidan "cooperative education" yoki "work-study programs" o'qitish tizimlari tashkil etila

boshlandi. Bu tizim talabalarga ishlab chiqarish bilan birga amaliy mashg'ulotlarda o'rganish imkoniyatini beradi.

“Dual” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, biror ob‘ektni ikki qismga ajratilishi, ikkita ob‘ektni ifodalovchi degan ma‘noni bildiradi.

Dual ta‘lim — bu nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiruvchi ta‘lim tizimi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarni ishlab chiqarishdagi aniq malaka va bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislar qilib tayyorlashdir. Dual ta‘limning huquqiy asoslari quyidagi qonun va me‘yoriy hujjatlariga asoslanadi:

1. **Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun** — har bir mamlakat o‘z ta‘lim tizimini me‘yoriy huquqiy hujjatlar bilan tartibga soladi. O‘zbekistonda "Ta‘lim to‘g‘risida"gi qonun (23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son) dual ta‘limni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi moddalarni o‘z ichiga oladi.

2. **Mehnat qonunchiligi** — talabalarni amaliyotga jalb qilish va ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, amaliyot jarayonidagi xavfsizlik qoidalari dual ta‘limning ajralmas qismi hisoblanadi.

3. **Mehnat va amaliyot bo‘yicha shartnomalar** — ko‘p hollarda talabalar va korxonalar o‘rtasida amaliyot shartnomalar tuziladi, bunda ishlash shartlari, ish vaqti, mehnat haqlari kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

4. **Kasbga yo‘naltirish va ta‘limi standartlari** — har bir kasb uchun aniq belgilab qo‘yilgan bilim va ko‘nikmalar davlat standartlarida aks etgan bo‘ladi.

Dual ta‘limning pedagogik asoslari ta‘lim jarayonida nazariy bilimlarni ishlab chiqarishdagi amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan:

1. **Pedagogik nazariya va metodlar** — dual ta‘limda nazariya va amaliyot uyg‘unlashtirilgan holda o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi. Pedagoglar amaliyot uchun muhim bo‘lgan real ko‘nikmalarni nazariy darslarda ham yoritishlari lozim.

2. **Kollaborativ ta‘lim va o‘zini o‘zi boshqarish** — dual ta‘limda talabalar faqatgina ma‘lumot olish bilan cheklanmasdan, ish joylarida ustoz va tajribali xodimlar bilan hamkorlikda ishlaydilar, bu esa ularda mas‘uliyat va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. **Talabalar motivatsiyasi va manfaatdorligi** — dual ta‘limda talabalar o‘z kelajagi uchun amaliy ish tajribasi orqali manfaatdor bo‘lib, ularni kasbga ko‘nikdirishga yo‘naltirilgan. Bunda ular o‘z ishiga mas‘uliyat bilan qarashni o‘rganadilar.

4. **Ta‘lim mazmunini individualizatsiyalash** — dual ta‘lim tizimida talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olib, ularning ishlash sohasi va kasbga mos o‘quv materiallari yaratiladi.

Dual talimning asosiy maqsadi talabalarning g‘oya qo‘yish, muammolarni hal qilish, fikr va tasavvurlarini rivojlantirish, kasbni o‘rganish jarayonida o‘zlashtirishni ta‘minlashdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

• Jalilov A.A., Qodirova Sh.T. Dual ta‘lim nima? Dual ta‘lim haqida tushuncha. Uzbek Scholar Journal. Volume-26, March -2024. –B.73-75.

- Jaloldinova O. “Professional ta’lim tizimida dual ta’lim shaklini tashkil etishning ijobiy tomonlari”. Technical science research in uzbekistan. 1.5 (2023), - B. 515-521.
- Jumanova F. “Dual ta’lim va uning imkoniyatlari”. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. 1.6 (2021), -B.122-124.